

TOLERANTLIK NAMOYON BO'LISHIDA JAMIYATNING O'RNI

Ibragimova Ra'no Djalgasovna

"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodda tolerantlik sifatlarini rivojlantirish eng muhim vazifalarimizdan biridir. Yosh avlodda ijtimoiy muloqot jarayonida sabrli va bag'rikeng munosabatning shakllanishi ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlik uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tolerantlik o'zgalarning fikri va xatti-harakatlariga chidamlilikni, ularga toqatlilik bilan munosabatda bo'lishni anglatadi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat va jamiyat o'rtasida ta'sirchan hamda samarali muloqotni yo'lga qo'yish, davlat organlari faoliyati bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mustahkam mexanizmlarini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son Farmonida belgilangan millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va hamjihatlikni ta'minlashga doir vazifalarni bajarishda davlat tashkilotlari bilan milliy madaniy markazlar, do'stlik jamiyatlari, ijodiy uyushmalar, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini idoralararo muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan.

Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham mavjud, biz ta'kidlab o'ttikki, qayerda tolerantlik qaror topsa shu joyda tinchlik-tituvlik hukm suradi, agar shu tolerantlik jamiyatda rivoj topmagan bo'lsachi?

Tolerantlik uzoq vaqt davomida insonda rivojlanib boradigan xususiyat hisoblanib, uni yoshlik davrdanoq oila va ijtimoiy muhit yordamida shakllantirib borish zarur.

Bugungi kunda dunyoning turli hududlarida diniy va demografik murosasozliklar ortidan yuzga chiqqan urush harakatlari davom etayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Vaholanki, o'sha hududdagi insonlar qadimdanbirga yashab kelushgan bo'lsa ham. Bunday holatlarning yuzaga chiqishining asosiy sabablaridan biri bu aynan bag'rikenglikning mavjud emasligidir.

Asosiy qism. Tolerantlik bugungi kunda insonlar hayotini tartibga soluvchi kuchli vosita sifatida davlat tuzilishi, ijtimoiy tizimda va inson huquqlarining rivojlanishida yetakchi omil bo'lib qolmoqda. Bu jarayonni tashkil etishda esa o'quv vositalari va o'qituvchining o'rni beqiyos hisoblanadi. Zero, tolerantlik tushunchasi o'z tarkibiga chidam, bardosh, o'zgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni ham qamrab olgan.

Bu masala bo'yicha shug'ullangan taniqli chet elik olimlar qatorida D.Lokk, R.Myullerson, K.Popper, B.Spinoza, D.Turimanlar tolerantlikni talqin qilishda liberal yondashuvni ochgan. "Tolerantliklik to'g'risida"gi risolasida amerikalik tadqiqotchi D.Truman yozganidek, jamiyatni tanazzuldan, saqlab qolish va barqarorlikni saqlab turish bu faqat ochiq jamiyatning mezoni bo'lib tolerantliklik bilan bog'liqligini yoritib bergan.

O'zbek tadqiqotchilaridan M.Xajievaning fikricha, tolerantlik turli ijtimoiy va e'tiqodiy tafovutlarga ega insonlar va millatlarni bir biriga bog'lab, ular o'rtasida do'stona munosabatni va muhitni yaratish orqali ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Tadqiqotchi Z.Husniddinov esa, bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: «tolerantlik umumiy ma'noda biror narsa, hodisani, o'zgacha fikr va qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'iy nazar, imkon qadar chidam va toqat bilan qabul qilishni anglatadi».

G'arb olimi G.Ayzenk tolerantlikni chidamlilik, murosasozlik va o'zga olam bilan muloqotga kirishiga ruhsat berish, unga nisbatan erkinlik va toqatlilik sifatida ta'riflaydi.

A.V.Petrovskiy "tolerantlik" tushunchasini adaptiv imkoniyatlarni kamaytirmasdan uzoq vaqt davomida noqulay ta'sirlarga dosh bera olish qobiliyati deb ta'riflagan. Umumiy ma'noda bag'rikenglik har qanday ishda qat'iyat va chidamlilik va chidash qobiliyati sifatida tavsiflanadi.

Kirish qismida to'xtalib o'tganimizdek tolerantlikni jamiyatga targ'ib etishda bir qator to'siqlar yuzaga kelishini tarixiy davr ko'rsatib bergan. Bulardan biri bu shovinizm hisoblanib u o'ta ketgan millatchilik ya'ni bir millatni boshqa hamma qolgan millatlardan ustun qo'yishni anglatadi. Bu atama Fransiyada Napoleon I davrida fransuz armiyasida xizmat qilgan N.Shoven nomidan olingan. Keyinchalik bu atama diniy ekstremizmning turli shakllarini ifodalashda ham ishlatilgan.

Shovinizm boshqa millat va xalqlarning madaniy va ma'rifiy qadriyatlarini poymol qilishga intilishi bilan fashizm va natsizmning ayrim elementlarini ham o'zida mujassam etgan.

Keyingi muammo ham aynan millatchilik bilan bog'liqdir. Biz yaxshi bilamiz agar bir mamlakat nomi biror millat nomi bilan atalsa masalan O'zbekiston, bu degani O'zbekistonda faqat o'zbeklar yashaydi yoki o'zbeklar yashashi kerak degani emas. Bu muammo ham dunyoning turli mamlakatlarida mavjud. Masalan biz bilgan uyg'ur xalqining katta qismi Xitoy hududida istiqomat qiladi.

Yana bir misol keltirish uchun uzoqqa borishimiz shart emas, o'zbek xalqi yashaydigan eng katta davlat O'zbekiston hisoblansa ikkinchi o'rinda Afg'oniston turadi. Vaholanki, o'zbeklar ming yillardan buyon o'z tuproqlarida yashab kelayotgan xalqdir. Lekin Afg'oniston deya nomlanuvchi hududda yashayotgan o'zbeklar oxirgi 200-300 yildan buyon hech bir ijtimoiy-siyosiy haq-huquqqa ega bo'lgan emas. Hattoki hozirgi kunda ham Afg'oniston tuproqlari tarixan o'zbeklarning o'z Vatani ekanligi pisand qilinmay, o'zbek xalqining madaniy va ma'rifiy qadriyatlari kamsitilgan

maqomda. Afg'onistonlik o'zbeklar asrlar davomida shunday juda murakkab tarixiy vaziyatlar qurshovida.

Hozirgi kunda Afg'onistonda istiqomat qiluvchi o'zbeklar uchun o'z milliy madaniyatini va o'zbek tilini saqlab qolish kabi masalalar bilan birga har tomonlama milliy rivojlanish zaruriyati eng muhim siyosiy-ijtimoiy masalalardan biri bo'lib qoldi. Ular o'zi yashab turgan mamlakatning kelajagi farovon bo'lishi uchun juda kerakli bo'lgan masalalarning yechimini topish kerakligini tushunib yetgan ahvolda yashamoqda. Ya'ni, insonlarning tinch va xotirjam yashashlarini ta'minlaydigan masalaga bog'liq bo'lgan his-tuyg'ularni kuchaytirish zaruriyati hayotiy masalaga aylandi. Eng muhimi, barcha afg'onistonlik o'zbeklarning oliy maqsadi bu milliy o'zligini anglash va asrash bo'lib ulgurdi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki dinlararo va millatlararo totuvlikka rahna soluvchi omillar ko'p bo'lishiga qaramasdan biz doimo bu to'siqlarni yengib o'tishga harakat qilishimiz zarur. Jamiyatda tolerantlik qanchalik keng tarqalsa shu mamlakatda tinchlik qaror topishiga bizning mamlakatimiz yaqqol misol bo'la oladi. Chunki O'zbekistonda ko'p millatli mamlakat bo'lishiga qaramay aholi tinch va murosa bilan yashashga odatlangan. Undan tashqari yurtimizda xar-xil din vakillari istiqomat qilishadi va ularning diniy qarashlariga hurmat bilan qaraladi va ularga shart-sharoitlar yaratib berilgan. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi" qonun bunga yaqqol misol bo'la oladi.

FOYDALANILGAN MANBAALAR RO'YXATI:

<https://lex.uz/ru/docs/-5108026?ONDATE2=10.08.2022&action=compare>

<https://kun.uz/uz/news/2017/12/07/afgoniston-haqida-muloazalar-ii-bo'lim>

<https://lex.uz/docs/-5491534>